

TA'LIM SOHASINING BOZOR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Hojiqulova Feruza Dona qizi

Termiz davlat universiteti hojiqulova@tersu.uz

Annotatsiya: Maqolada ta'lim sohasining ahamiyati, ta'lim sohasining amaldagi mexanizmi va ta'lim sohasining bozor iqtisodiyotiga ta'siri ko'rsatilgan. Ta'lim sohasiga oid tushunchalar va unga oid tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar ko'rib chiqiladi. Ta'lim xizmatlari bozorining tuzilishi, uning mehnat bozori bilan o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Ta'lim sohasining afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatib o'tildi.

Kalit so'zlar: Ta'lim sohasi, mehnat bozori, ta'lim tizimining iqtisodiy tizimga ta'siri, ta'lim xizmati, ta'lim sohasi xizmatlari, ta'lim sohasida bozor munosabatlarini tartibga solish.

Kirish. Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda birinchi navbatda ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ta'limning inson hayotidagi o'rni va uning umrboqiy xislatlarini yoritib borish muhim masalalardan hisoblanadi. Yangilanayotgan iqtisodiyotda nafaqat oliy ta'lim tizimi bugungi asrimizning ham iqtisodiy qudrati va bugungi va ertangi kelajagi hisoblanib, davlatlarning global raqobati sharoitida asosiy va istiqbolli sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy bilimlar iqtisodiyotida raqobatlashish uchun O'zbekiston Respublikasining mehnat bozorida yuqori malakali kadrlar ulushini keskin oshirish ob'ektiv zaruriyat sifatida vujudga keladi.

2022-yilning 22-dekabrida mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga atroflicha to'xtalib, 2023-yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalarini belgilab berdilar. Biz Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Shu bois, maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023- yildagi eng asosiy

vazifalarimizdan biri bo'ldi va ta'lim sohasini yaxshilash islohotlarimizni jadal davom ettirishini ta'kidlab o'tdilar [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qo'yilgan masala muammosini ko'rib chiqishda sintez va analiz, eksport baholash usuli bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatda milliy mehnat bozori hamda inson kapitalini iqtisodiy o'rni va islohotlar markazining izlanishlari natijalariga ko'ra, mamlakatning jahon iqtisodiyotida raqobatni saqlab qolish borasidagi yagona imkoniyati – ta'lim sohasidagi ilg'or modernizatsiya sahnasi jarayonini amalga oshirish - mehnat bozorida sifati o'zgarishi va yuqori malakali mutaxassislar ulushining ko'payishi hisoblanadi. Shubhasiz, oliy ma'lumot insonning asosiy huquqi va inson taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchidir. Oxir-oqibat noqulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bo'lgan odamlarning qashshoqlikdan chiqib ketishlari uchun ularga bilim va ko'nikmalar berish, shu orqali hayotini yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi, shuningdek ta'lim sohasi faoliyatining to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash, avvalo talabalarni ta'lim olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va isloh qilishga qaratilgan maqsad va vazifalarning ijrosini ta'minlash haqiqiy bozor mexanizmlarini amaliyotga joriy etish orqali amalga oshirilishi lozimligi zaruriyati hamda ular bo'yicha amaliy tavsiyalar berishni bugungi kun mezonining eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan muammosiga aylantiradi.

Darhaqiqat 2023 yilni Prezidentimiz tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi, ta'lim sohasini takomillashtirish uchun turtki bo'ldi deyish mumkin. Ammo shu yilda ta'lim jarayonlari haqida mulohaza qiladigan bo'lsak, ayrim jabhalarda ishlar sustkashlik bilan bajarilayotganligi ko'zga yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ya'ni inson kapitalining yuqori emasligi iqtisodiy o'sishimizning imkoniyatlarini cheklayotganini baholay olmayapmiz. Past daromadli iqtisodiyotga aylanish uchun ta'lim tizimlarini rivojlantirishga katta mablag' sarflash kerak va uning nazoratini ham to'g'ri tashkil qilish zarurdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, daromadi past iqtisodiyotdan muvaffaqiyatli ravishda yuqori daromadli mamlakatlarga aylangan davlatlar o'z ta'lim tizimlarini rivojlantirishga katta mablag' sarflagan. Hatto o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari 1-2 foiz oshishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan ta'lim sohasidagi strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni jadallashtirish mamlakatning dunyo sahnasida raqobatbardosh iqtisodiyotga aylanishiga zamin yaratishi mumkin. Inson kapitalining yetarlicha yuqori darajada emasligi O'zbekistonning qo'shimcha xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini cheklaydi. Masalan, mahalliy bozordagi firmalar o'zlariga zarur bo'lgan kasbiy-texnik ko'nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, malakali ishchi kuchining yetishmasligi esa ularning o'sishiga eng jiddiy

to'siqlardan biridir. Iqtisodiyotda yangi korxonalar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan, ish beruvchilar tomonidan yosh ishchilarga qo'yiladigan talablar ta'lim tizimi beradigan ko'nikmalar va bilimlarga mos kelmasligi tufayli yanada og'irlashadi. Shu o'rinda aytish joizki, hozirgi himoya qilayotgan professor o'qituvchilarning ilmiy tadqiqot yangiliklarini ommaga yoyilishi bo'yicha ishlari ishlab chiqarish va nazariya bilan uzviy bog'lanmaganli va investorlar tomonidan kapital kiritilmayotganligi va natijada ishlanmalar nazariya sifatida qolib ketayotganligi, O'quvchilarning kerakli fanlarga qiziqmasligi, ayrim bosqichda o'qituvchilarning yetarli bilimga ega emasligi, o'quvchilarning vaqtini to'g'ri taqsimlay olmasligi, o'quvchilarni chalg'ituvchi tashqi omillar, ma'lumotlarni tushunmasdan yodlash, asosiy o'qitiladigan fanlar bilan talab oshgan zamonaviy kasblar bog'liq emasligi, darsliklarning nazariyaga asoslanganligi, ayrim o'rganilayotgan bilimning amaliyotda qo'llanilmasligi kabi ketma-ket muammolar ham mavjud.

Bu muammolarga yechim topish yoshlarda innovatsion g'oyalarini uyg'otish uchun ularni kreativ fikrlash doirasini o'stirishga oid boshlang'ich ta'limdan boshlab o'qitiladigan dastur ishlab chiqilishi va ijrosini nazorat qilish zarurdir. Ta'lim sifatining pastligi, yangi ish o'rinlarini yaratish masalasi, bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish jarayoni, ekologik muammolar, jahondagi raqobat muhiti O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish yo'lidagi muammolardir. Shuningdek, oxirgi yillarda oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchilarga to'lanayotgan oylik maoshlari sezilarni o'zgarganligi, ammo ish samaradorligini oshirish va ishga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish bo'yicha aniq mexanizmi ishlab chiqilmaganligi bugungi dolzarb muammolardandir.

Xulosa va takliflar. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish borasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ta'lim sohasidagi siyosatining amaliy natijasi asosan tadqiqot natijalari ya'ni ilmiy tadqiqot yangiliklarini hozirgi jamiyat va zamonga moslab ommaviy tarzda yoyilishini amalga oshirish choralarini ko'rishni ta'minlash lozim. Hozirgi global zamonda yashayotganligimiz dunyoda fan-texnika yutuqlari shiddat bilan ketayotgan bir paytda bizga zamonaviy va yangi bilimlarni o'rganish zamon talabi shundan kelib chiqib oliy ta'lim tizimining malaka oshirish muddatini uch yildan ikki yilga tushirish ayni muddao bo'lar edi. Talabalarni fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otish uchun amaliyot darslarini tog'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish bilan olib borishni ko'paytirish hamda talaba tanlov fanlarini har bir talaba qiziqishidan kelib chiqib tanlashiga imkon berish lozim. Shuningdek, iqtisodiyotni raqamlashtirish har bir mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa qiyinchiliklariga bog'liq bo'lmagan global jarayondir. Uning ta'siri har qanday mamlakatda ma'lum o'zgarishlarni talab qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirishning muvaffaqiyati to'liq ta'lim sohasini ham qamrab olishi va malakali mutaxassislarni tanlashda har qanday sohada

shaffoflik va adolatlilikni ta'moyil sifatida ta'minlash va jamiyat mentalitetining tubdan o'zgarishiga olib keladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim sohasini to'liq raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 22-dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasi ma'ruza qismi.
2. Surxondaryo viloyat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari
3. N.M. Babaeva, X.M. Begmatov. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyatida investitsiyadan samarali foydalanish. "Iqtisodiyat va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnal, 1-son, 2019 yil.
4. www.un.int/uzbekistan/news

